

Inayatov Jaxongir G'apurjonovich
Sarbov universiteti Ijtimoiy – gumanitar
fanlar kafedrası dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

TURKISTON O'LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASINING FOTOGRAFIK BILIMLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolaning qisqacha mazmuni bilan tanishadigan bo'lsak XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada rivojlangan fotografiya sanati imperiya mustamlakachilik siyosati bilan birgalikda Turkiston o'lkasiga kirib keladi. Fotografiya vositasi dastlab harbiy va siyosiy maqsadlarda, xususan, o'lkani boshqarish, hududlarni xaritalash, mahalliy aholini o'rganish va nazorat qilish uchun ishlatilgan. Shu bilan bir qatorda, mahalliy hayotda, tabiat, me'morchilik va etnografik jihatlar aks ettirilgan fotosuratlar orqali Turkistonning tarixiy-madaniy manzarasi ham tasvirlanadi.

Tadqiqot davomida fotografiyaning mahalliy jamiyatga ta'siri, madaniyatlararo aloqa vositasi sifatidagi roli hamda imperiyaning mustamlakachilik siyosatidagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, dastlabki mahalliy fotoagraflar va xorijiy fotograf mutaxassislarning shakllanishi va faoliyati haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Turkiston o'lkasi, fotografiya sanati, fotoagraflar, Xudoybergan Devonov, K.P.Kaufman, M.G. Chernyayev, Fotosurat, Rossiyada, Sergey Prokudin Gorskiy, Rossiya imperiyasi.

СТАНОВЛЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ФОТОГРАФИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ

Аннотация. Если кратко ознакомиться с содержанием данной статьи, то во второй половине XIX века развитое в Европе искусство фотографии проникло в Туркестанский край вместе с колониальной политикой империи. Первоначально фотография использовалась в военных и политических целях, в частности для управления краем, картографирования территорий, изучения и контроля местного населения. Наряду с этим, через фотографии, запечатлевшие местную жизнь, природу, архитектуру и этнографические аспекты, была представлена историко-культурная панорама Туркестана. В ходе исследования раскрываются влияние фотографии на местное общество, её роль как средства межкультурной коммуникации, а также место в колониальной политике империи. Кроме того, приводятся сведения о становлении и деятельности первых местных фотографов и зарубежных специалистов в области фотографии.

Ключевые слова: Туркестанский край, фотографы, Худойберген Девонов, К.П. Кауфман, М.Г. Черняев, фотография, Россия, Сергей Прокудин-Горский, Российская империя.

THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT FEATURES OF PHOTOGRAPHIC KNOWLEDGE OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE TURKESTAN REGION

Annotation. If we briefly review the content of this article, in the second half of the 19th century, the art of photography, which had developed in Europe, was introduced to the Turkestan region along with the imperial colonial policy. Initially, photography was used for military and political purposes, particularly for governing the region, mapping territories, studying, and controlling the local population. In addition to this, photographs depicting local life, nature, architecture, and ethnographic aspects also illustrated the historical and cultural landscape of Turkestan. The study explores the impact of photography on the local society, its role as a means

of intercultural communication, and its place in the imperial colonial policy. Furthermore, information is provided about the emergence and activities of the first local photographers and foreign photography specialists.

Keywords: *Turkestan region, photographers, Khudaybergen Devanov, K.P. Kaufman, M.G. Chernyayev, photography, Russia, Sergey Prokudin-Gorsky, Russian Empire.*

Turkiston o'lkasida fotografiya sanatining paydo bo'lishi, shakllanishi hamda mahalliy ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlardagi roli murakkab ilmiy-tarixiy hodisa hisoblanadi. Turkistonda fotografiya sanatining rivojlanishi Rossiya imperiyasining bosqinchilik harakatlari bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon faqatgina siyosiy-ma'muriy o'zgarishlarni emas, balki texnologik va madaniy o'zgarishlarni ham o'z ichiga olgan. Mustamlakachilik siyosatining tarkibiy qismi sifatida fotografiya sanatining shakllanishi aynan shu davrda boshlangan. Fotografiya sanati bir tomondan, imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi nazorat, propaganda va targ'ibot vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, boshqa tomondan, ilmiy-tadqiqot ishlari uchun muhim vizual manba sifatida qadrlangan.¹ Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini amalga oshirgan ekspeditsiya azolari ichida harbiylar, ma'muriy xodimlar va ko'plab fotograf-mutaxassislar faoliyat olib borgan.

Dastlabki fotografik ishlar harbiy va siyosiy maqsadlarda amalga oshirilgan bo'lsa-da, keyinchalik bu texnologiya mahalliy hayotning turli jabhalariga kirib borgan. Fotografiya san'atining tarqalish bosqichlari va omillari XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining yirik shaharlari yaniy Sankt-Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburg orqali fotografiya sanati O'rta Osiyo mintaqasiga, jumladan, Xiva, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona vodiysiga kirib keldi.² Fotografiya sanatining shakllanishini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

-Harbiy-istilochilik bosqichi 1860-1870-yillar: Ushbu bosqichda fotosuratlar asosan harbiy-siyosiy jarayonlarni qayd etish va imperiya manfaatlariga xizmat qilish maqsadida amalga oshirildi. Turkistonni egallagan generallar M.G. Chernyayev, K.P. Kaufman va boshqalar fotografiyani mahalliy geografik hududlarni vizual tarzda o'rganish vositasi sifatida qo'lladi.

-Ilmiy-tadqiqot ekspeditsiyalari bosqichi 1870-1900-yillar: Turkiston gubernatorligi tashkil etilgach, mintaqani ilmiy o'rganish keng ko'lamda yo'lga qo'yildi. Fotosuratlar orqali imperiya Turkistonni quyidagi jihatlar asosida vizual va ramziy tasvirlagan:

-Ekzotizatsiya va orientalist stereotiplarni mustahkamlash: Fotosuratlarda mahalliy xalq "orqada qolgan," "madaniy jihatdan past" yoki ekzotik sharqlik sifatida ko'rsatilib, mustamlakachilik siyosatining zarurligi uchun mafkuraviy asos yaratildi.

-Imperiya hukmronligining mustahkamligini tasdiqlash: Davlat muassasalari, harbiy istehkomlar, temir yo'l stansiyalari, rus ko'chmanchilari manzaralari va boshqa obyektlar tasvirlanib, Rossiya hukmronligi mustahkamligi vizual tarzda ifodalandi.³ Shuningdek, fotografiya sanatining ilmiy maqsadlarda qo'llanilganligini alohida ta'kidlash joiz. Fotosuratlar etnografiya, arxeologiya, geografiya va tarix sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarda muhim manba sifatida foydalanildi.

Mahalliy aholi dastlab fotografiyaga shubha bilan qaragan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan uning amaliy va madaniy qadriyatlarini o'rganishdagi, ahamiyati yuqori bo'lganligi sababli mahalliy elita va ziyolilar orasida keng ommalashishiga olib keldi. Fotosuratlar orqali mahalliy aholining imperiya bilan munosabatlarini ochib berishga xizmat qilgan, shuningdek, milliy madaniyatni namoyon etish va tarixiy xotirani shakllantirish vositasi sifatida manbaviy ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Turkistonni mustamlakaga aylantirishi nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy va texnologik sohalarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu jarayonda fotografiya texnologiyasining tarqalishi va

1 A'zamxo'jaev S. Turkistonda fotografiya tarixi. – Toshkent, 2018. – 224 b. 2.

2 Qosimov N. Turkiston o'lkasida Rossiya mustamlakachilik siyosati va madaniyat. – Samarqand, 2014. – 312 b.

3 Pantusov N.N. O'rta Osiyo fotosuratlar kolleksiyasi. – Toshkent, 1898. – 198 b.

24 rivojlanishi, uning mahalliy hayotni aks ettiruvchi muhim vosita sifatidagi roli alohida e'tiborga loyiqdir.⁴ Fotosuratlarining imperiya siyosatidagi o'rni va vazifalarini alohida ta'kidlash lozim. Ular Rossiya imperiyasi uchun muhim siyosiy-ideologik vosita bo'lib xizmat qilgan.

Fotosuratlar tarixiy-etnografik tadqiqotlar uchun beqiyos manba bo'lib, ular orqali Turkiston jamiyatining murakkab ijtimoiy-madaniy hayotini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyati yuzaga kelgan. Fotosuratlarining Turkistonga kirib kelishi va tarqalishi bevosita Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati bilan bog'liq bo'lib, imperiya fotografiyani siyosiy-ma'muriy harakatlarning nazorat va kuzatuv vositasi sifatida qo'llagan.⁵ Shuningdek, fotosuratlar ilmiy-tadqiqot ekspeditsiyalarining tarkibiy qismi sifatida geografik, etnografik va arxeologik maqsadlarda ham keng qo'llanilgan. Rossiyalik fotograf va tadqiqotchilar – Sergey Prokudin-Gorskiy, Dmitriy Yermakov, Vasiliy Vyatkin, Nikolay Pantusov va boshqa mualliflar Turkistonda olib borilgan ilmiy ekspeditsiyalar davomida ko'plab fotosuratlar yaratganlar. Ularning yaratgan manbalarida mahalliy aholining kundalik hayoti, iqtisodiy faoliyati, madaniy tadbirlar, diniy va oilaviy marosimlar aks etgan.⁶

Fotosuratlarining katta qismi mustamlakachilik nuqtayi nazaridan tayyorlangan bo'lib, imperiya manfaatlarini ilgari suruvchi stereotiplar va orientalist tasavvurlarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Ayniqsa, Prokudin-Gorskiyning rangli fotosuratlarini madaniy jihatdan Turkistonni rangli tasvirlar asosida romantik tasvirlash va shu orqali imperiya hukmronligining manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan edi.⁷ Boshqa tarafdin, Dmitriy Yermakov va Vasiliy Vyatkin kabi fotograf-tadqiqotchilar mahalliy hayotni nisbatan obyektiv tarzda qayd etishga intilgan.

Yermakovning fotosuratlarini ayniqsa muhim ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlardagi mahalliy aholi turmushi, hunarmandchilik, savdo-sotiq va bozorlardagi hayot manzaralari aks etgan.⁸ Ushbu jarayonda fotografiya san'atining tarqalishi va rivojlanishi, uning mahalliy hayotni aks ettiruvchi muhim vosita sifatidagi roli alohida e'tiborga loyiqdir.⁹ Fotosuratlarining imperiya siyosatidagi o'rni va vazifalarini alohida ta'kidlash lozim. Ular Rossiya imperiyasi uchun muhim siyosiy-ideologik vosita bo'lib xizmat qilgan.

Xudoybergan Devonov kabi mahalliy fotograf mualliflar foto manbalar orqali o'z xalqining ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotini aks ettirishga intilgan. Bu jarayon mahalliy madaniyatni saqlash, qayta tiklash va rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qilgan. Fotosuratlar tarixiy-etnografik tadqiqotlar uchun beqiyos manba bo'lib, ular orqali Turkiston jamiyatining murakkab ijtimoiy-madaniy hayotini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyati yuzaga kelgan. Vyatkin va Pantusov yaratgan fotosuratlar esa asosan arxeologik va etnografik tadqiqotlar uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, ular Turkiston madaniyatining tarixiy qatlamlarini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini bergan.

Devonovning ijodi mahalliy fotografiya maktabining shakllanishi sifatida baholanadi. U imperiya tomonidan yaratilgan fotosuratlardan farqli o'laroq, mahalliy jamiyatni ichkaridan kuzatish orqali realistlik obrazlarni yaratishga intilgan. Uning fotosuratlarida xalq hayotining tabiiy holati – milliy kiyimlar, oilaviy marosimlar va madaniy an'analar ayniqsa yaqqol aks etgan bo'lib, bu holat mustamlakachilik tasavvurlariga zid manbalar asosida shakllangan.¹⁰

Fotosuratlar orqali shakllangan obrazlar imperiya davrida Turkistonni tasavvur qilishning muhim manbalaridan biriga aylangan. Imperiya tomonidan yaratilgan fotosuratlar ko'pincha mahalliy jamiyatni "orqada qolgan," "ekzotik" va "madaniy jihatdan past" sifatida tasvirlagan bo'lsa, mahalliy fotosuratlarda Turkiston jamiyatining murakkabligi, boy madaniyati va chuqur

4 Chernyayev M.G. Harbiy kundaliklar va fotosuratlar. – Moskva, 1885. 256b.6.

5 Sekula A. Fotosurat: oqimga qarshi esse va fotoloyihalar, 1973–1983. – London: Mack Books, 2016. – 256 b.

6 Ostroumov N.P. Turkiston xalqining urf-odatlarini va marosimlarini (fotosuratlar bilan). – Toshkent, 1895. – 232 b.

7 Prokudin-Gorskiy S. Turkiston fotosuratlarini to'plami, 1905–1915. – Sankt-Peterburg, 1915. – 180 b.

8 Yermakov D.I. Kavkaz va Turkiston fotosuratlarini to'plami. – Tiflis, 1890. – 164 b.

9 Vyatkin V.L. Samarqand tarixiy obidalari fotosuratlarini to'plami. – Sankt-Peterburg, 1900. – 210 b.

10 Devonov X. Turkistonning tarixiy va etnografik fotosuratlarini. – Toshkent, 1910. – 142 b.

ijtimoiy munosabatlari aniq aks ettirilgan. Shu jihatdan olib qaraganda, fotosuratlar orqali Turkiston tarixiga bo'lgan qarashlar ikki qarama-qarshi yo'nalishda rivojlangan.

Xulosa. Turkiston o'lkasida fotografiya san'atining paydo bo'lishi va shakllanishi murakkab tarixiy, madaniy va siyosiy jarayon bo'lib, uning tahlili kolonial tarixni ilmiy tadqiq qilishda muhim metodologik imkoniyatlar yaratadi.

Fotografiyaning rivojlanishi orqali imperiyaning Turkiston o'lkasidagi madaniy va siyosiy strategiyalarini, shuningdek, mahalliy aholining mustamlakachilik siyosatiga qarshi javoblarini hamda o'z identifikatsiyasini qayta tiklashga urinishlarini tushunish mumkin. Rossiya imperiyasi davrida Turkistondagi mahalliy hayotni aks ettiruvchi fotosuratlar va ularning mualliflarini ilmiy-tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali imperiya siyosatining madaniy-mafkuraviy mexanizmlarini, shuningdek, mahalliy jamiyatning ushbu siyosatga nisbatan reaksiyasi va javobini chuqur tushunish mumkin.

Fotosuratlar bugungi kunda ham tarixiy xotira va milliy identifikatsiya masalalarini qayta anglash va baholash uchun muhim vizual manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A'zamxo'jaev S. Turkistonda fotografiya tarixi. – Toshkent, 2018.
2. Qosimov N. Turkiston o'lkasida Rossiya mustamlakachilik siyosati va madaniyat. – Samarqand, 2014.
3. Prokudin-Gorskiy S. Turkiston fotosuratlari to'plami, 1905–1915. – Sankt-Peterburg, 1915.
4. Devonov X. Turkistonning tarixiy va etnografik fotosuratlari. – Toshkent, 1910.
5. Chernyayev M.G. Harbiy kundaliklar va fotosuratlar. – Moskva, 1885.
6. Pantusov N.N. O'rta Osiyo fotosuratlar kolleksiyasi. – Toshkent, 1898.
7. Vyatkin V.L. Samarqand tarixiy obidalari fotosuratlari to'plami. – Sankt-Peterburg, 1900.
8. Yermakov D.I. Kavkaz va Turkiston fotosuratlari to'plami. – Tiflis, 1890.
9. Ostroumov N.P. Turkiston xalqining urf-odatlar va marosimlari (fotosuratlar bilan). – Toshkent, 1895.
10. Sekula A. Fotosurat: oqimga qarshi esse va fotoloyihalar, 1973–1983. – London: Mack Books, 2016.